

AYOLLAR FUTBOLINI RIVOJLANTIRISHNING ISTIQBOLLARI

Tursunqulov Mansur Mahmud o'g'li

"TIQXMMI" Milliy tadqiqot universiteti,

Jismoniy tarbiya va sport kafedrası O'qituvchisi

+998900320199

tursunqulovmansurxon@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18677585>

Annotatsiya

Yurtimizda ayollar futboliga bO'lgan e'tibor va chiqarilayotgan qaror, farmonlar natijasi O'laroq ko'plab musobaqalar O'zbekiston chempionati, O'zbekiston kubogi, O'zbekiston superkubogi, Birinchi liga O'tkazilib kelinmoqda.

Kalit so'z: Ayollar futboli, musobaqalar, qaror farmonlar, ankita so'rovnomasi, Xalqaro musobaqalardagi natijalar, mutaxassislar fikri.

Abstract

As a result of the attention paid to women's football in our country and the decisions and decrees issued, many competitions are being held: the Uzbekistan Championship, the Uzbekistan Cup, the Uzbekistan Super Cup, and the First League.

Keywords: Women's football, competitions, decisions and decrees, questionnaire, results of international competitions, expert opinions.

Annotatsiya

Mamlakatimizda ayollar futboliga qaratilayotgan e'tibor, shuningdek, qabul qilingan qaror va farmonlar tufayli ko'plab musobaqalar o'tkazilmoqda: O'zbekiston chempionati, O'zbekiston kubogi, O'zbekiston Superkubogi va Birinchi liga.

Kalit so'zlar: ayollar futboli, musobaqalar, qarorlar va farmonlar, so'rovnoma, xalqaro musobaqa natijalari, ekspert xulosalari.

Zamonaviy futbol millionlar O'yinidan milliardlar O'yiniga aylanib ulgurdi. Futbolning ko'lami va ahamiyati kundan kun ortib bormoqda. Futbol bo'yicha erkaklar O'rtasida jahon chempionati Olimpiada musobaqalaridan so'ng jahonning eng qiziqarli va tomoshabop musobaqasi bo'lib turibdi. Zamonaviy futbol nafaqat erkaklar balki, ayollar O'rtasida ham sevimli sport turiga aylanmoqda. Mamlakatimizda ham futbolga hususan ayollar futboliga bO'lgan etibor ham yildan yilga ijobiy O'zgarishlarga sabab bo'lmoqda. Jumladan, Prezidentimizning 2023-yil 7-aprelda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining „Ommaviy va professional futbolni har tomonlama rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida“gi qarori qabul qilingan. Qarorda ayollar o'rtasida futbolni rivojlantirish, reja va dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish belgilab qo'yilgan.[1]

Yurtimizda ayollar futbolini rivojlantirishning samarali usullarini aniqlash va mutasaddi tashkilotlarga takliflar berish. Qizlar orasida futbolni targ'ib etish usullarini amalga oshirish.

1.Ayollar futboli haqida jamiyat fikr-mulohazalarini O'rganib chiqish; 2.Sohani rivojlantirish uchun asosiy omillarni aniqlab olish; 3.Turli yosh toifasida ayollar futboli musobaqalarini yo'lga qo'yish.

O'zbekistonda ayollar futboli ayollar o'rtasida rivojlanib borayotgan sport turi hisoblanadi. Ayollar futboli faoliyati O'zbekiston futbol assotsiatsiyasining ayollar futbolini rivojlantirish bo'limi tomonidan olib boriladi. Ayollar futboliga oid qoidalar va chempionatlar nizomlari O'zbekiston futbol assotsiatsiyasi qoshidagi Ayollar futboli qo'mitasi tomonidan ishlab chiqiladi. Hozirda O'zbekistonda 18 ta professional va bir qancha havaskor ayollar futbol

klublari mavjud bo'lib, ular o'rtasida Oliy Liga, Birinchi Liga, O'zbekiston kubogi va O'zbekiston Superkubogi musobaqalari o'tkazilib kelinmoqda.[2]

O'zbekistonda ayollar futboliga 90-yillarning boshlarida asos solingan bo'lib, birinchi havaskor klub Toshkentda „Spartak“ nomi ostida tashkil qilingan. 1994-yilda futbol bo'yicha ayollar terma jamoasi tashkil etilgan. 1995-yilda O'zbekiston birinchi marta Malayziyada o'tkazilgan Osiyo chempionatida ishtirok etib, 6-o'rinni egallagan. 1995-yildan O'zbekistonning milliy futbol klublari o'rtasida ham musobaqalar o'tkazila boshlangan. O'tkazilgan birinchi milliy chempionatda Ravshan Usmonxo'jayev murabbiyligidagi „Chehra“ klubi g'oliblikni qo'lga kiritgan. Shu yilning sentyabr oyida Ravshan Usmonxo'jayev murabbiylik qilgan „Chehra“ klubi a'zolaridan tashkil topgan O'zbekiston ayollar milliy futbol terma jamoasi 2-marta Malayziyaning Kota-Kinabalu shahrida o'tkazilgan Osiyo chempionatida qatnashib 3-o'rinni egallashgan.

2003-yilgacha o'tkazilgan milliy chempionatlarda Andijonning „Andijanka“ klubi birinchilikni bermay kelgan bo'lsa, 2003-yilda Qashqadaryo viloyati hokimi Nuriddin Zayniyev tashabbusi bilan ilk bor tashkil etilgan Vladislav Xan murabbiyligidagi „Talaba“ (hozirgi „Sevinch“) futbol klubi o'zining birinchi chempionatidayoq 3-o'rinni egallab, keyingi yilda esa chempionlikni nishonlagan. „Sevinch“ O'zbekistonda ilk rasmiy ayollar futbol klubi sifatida tashkil etilgan bo'lsa, boshqa viloyatlardagi ayollar futbol klublari erkaklar futbol klublari qoshida bo'lib, 2018-yilda rasman ajralib chiqqan.

2005-yili Tailandda o'tkazilgan yopiq sport inshootlardagi Osiyo o'yinlarida Vladislav Xan murabbiyligidagi O'zbekiston ayollar milliy futbol terma jamoasi birinchi marta qit'a chempionatida g'oliblikni qo'lga kiritgan. 2007-yilda Makaoda o'tkazilgan ushbu turnirda jamoa uchinchi o'rinni egallagan.[4]

2015-yilda Toshkentdagi oliy o'quv yurtlari talaba qizlari o'rtasida ilk bor ayollar futboli bo'yicha birinchi turnir bo'lib o'tgan.

2023-yilda O'zbekistonda ilk ayollar futboli maktabi ochilgan. 2023-yil 22-iyunda bo'lib o'tgan futbol maktabi ochilish marosimida O'zbekiston futbol assotsiatsiyasining birinchi vitse-prezidenti Ravshan Sayfitdinovich Ermatov, O'zbekiston futbolchilar uyushmasi rahbari Kamoliddin Murzoyev tadbir mehmoni sifatida ishtirok etishgan. „Sevinch“ ayollar futbol maktabi 50 o'ringa mo'ljallangan. Mahalliy futbolchilar esa mashg'ulotlarga uylaridan qatnashlari ko'zda tutilgan edi.

O'zbekiston Oliy ligasi – 1995-yildan beri o'tkazib kelinadigan O'zbekistonda ayollar futboli musobaqalarining oliy divizion musobaqasi hisoblanadi. 2013-yilgi mavsumdan boshlab Oliy ligada faqat professional klublar ishtirok etishi belgilab qo'yilgan. Ligalar o'rtasidagi almashinuv nizom bilan belgilanadi va sport tamoyiliga muvofiq amalga oshiriladi. Oliy ligada 10-o'rinni egallagan jamoa Birinchi ligaga yo'l oladi. Birinchi liga g'olibi va ikkinchi o'rin sohibi Oliy ligaga chiqadi. O'zbekiston Oliy ligasining eng muvaffaqiyatli klubi „Sevinch“ futbol klubi bo'lib, 15 marta chempionlikni qo'lga kiritgan. Bundan tashqari ma'lum yillarda chempionatda Andijanka (6), Bunyodkor-W (2), Chexra (2), So'g'diyona-W (1), Metallurg-W (1), Navbahor-W (1), Baho (1) klublari ham g'olib bo'lgan.

Birinchi liga O'zbekiston ayollar futbolining ikkinchi darajali musobaqasi hisoblanib 2011-yilda tashkil topgan. O'zbekiston ayollar o'rtasidagi futbol birinchi ligasi O'zbekiston Professional futbol ligasi tomonidan o'tkaziladi. O'zbekiston ayollar Birinchi ligasi g'olibi va 2-o'rin sohibi O'zbekiston ayollar Oliy ligasiga to'g'ridan-to'g'ri yo'llanma oladi.

Birinchi liga ishtirokchilari har yili O'zbekiston kubogida ishtirok etishadi.

O'zbekiston kubogi – 2002-yildan boshlab ayollar o'rtasida har yili o'tkazib kelinayotgan milliy kubok musobaqasi hisoblanadi. O'zbekiston Kubogi bahslari 2002-yildan beri tashkil etilgan. Birinchi O'zbekiston kubogi sohibi Andijonning „Andijanka“ klubi hisoblanadi.

O'zbekiston Kubogi g'oliblari futbol bo'yicha ayollar o'rtasidagi O'zbekiston Superkubogida ishtirok etish huquqini qo'lga kiritadi. „Sevinch“ 10 marta O'zbekiston kubogi sohibi bo'lgan musobaqadagi eng muvaffaqiyatli klub hisoblanadi. Ikkinchi o'rinda „Andijanka“ 4 ta, „Metallurg-W“ 3 ta „Bunyodkor-W“ esa 2 ta bilan to'rtinchi o'rinda bormoqda.[4]

Osiyo Futbol Konfederatsiyasida O'zbekiston birinchi marta 1995-yilda ishtirok etgan, lekin hozirgacha shohsupaga ko'tarilmagan. OFK Osiyo kubogining 22-mavsumi 2029-yilda O'zbekistonda o'tkazilishi rejalashtirilgan. Bu haqida OFKning 2024-yil 15-mayda Tailand poytaxti Bangkok shahrida o'tkazilgan OFK 4-ijroiya qo'mitasi yig'ilishida, OFK prezidenti Shayx Salmon tomonidan e'lon qilingan.

Ayollar futbol klublari o'rtasidagi Osiyo chempionati – Osiyodagi ayollar futbol klublari musobaqasi bo'lib, 2019-yilda asos solingan va 2024-yilda OFK ayollar chempionlar ligasi tashkil etilishi bilan tugatilgan. 2022-yilda O'zbekistonning Qarshi shahrida o'tkazilgan Osiyo chempionatida Jizzax viloyatining „So'g'diyona-W“ klubi g'oliblikni qo'lga kiritgan.

O'zbekiston ayollar milliy futbol terma jamoasi xalqaro turnirlar va futbol o'yinlarida O'zbekistonni himoya qiluvchi milliy ayollar terma jamoa bo'lib, 1994-yilda tashkil etilgan. Hozirda terma jamoa bosh murabbiyi yaponiyalik Midori Honda hisoblanadi. 2024-yil 14-iyun kuni ayollar futbolida yangilangan FIFA reytingiga ko'ra, O'zbekiston ayollar milliy terma jamoasi reytingda bir pog'ona ko'tarilib, 47-o'ringa chiqqan va Osiyoda Yaponiya, KXDR, Avstraliya, Xitoy, Koreya Respublikasi, Vyetnam, Filippin, Xitoy Taypeyi va Tailand termalaridan so'ng 10-pog'onani egallab turibdi. FIFAning 2024-yil 16-avgustdagi reytingida esa, O'zbekiston bir pog'ona quyilab, jahon bo'yicha 48-o'rinni egallagan.[4]

SO'rovnomada har bir qatnashuvchi O'zining shaxsiy fikrlari ayollar futbolini rivojlantirish chora-tadbirlari yoritib berishdi. Mamlakatimizda ayollar futbolini rivojlanritish uchun qanday ishlarni amalga oshirish zarur degan savolga kO'plab insonlar turlicha javob berishi mumkin. Shu holatlarni hisobga olib, biz ham shu soha bO'yicha mutaxassislar, ayollar futboli ishtirokchilari (murabbiylar, ayol futbolchilar), Oliy ta'lim jismoniy madaniyat va sport sohasida faoliyat yuritayotgan mutaxassislar, Xotin-qizlar sporti yo'nalishi talabalari bilan ochiq sO'rovnoma O'tkazdik.

SO'rovnomada ayollar futboli yoki jismoniy tarbiya va sport soxasiga aloqador bO'lgan mutaxassislardan (asosan ayollar) 28 nafari ishtirok etdi va ulardan ayollar futboli haqidagi fikr-mulohazalari O'rganib chiqildi. Ishtirokchilarning 13 nafari (46,4%) yurtimizdagi ayollar futboliga bO'lgan e'tibor qanoatlanishi ma'lum bO'ldi. 25 nafari (89,2%) doimiy ravishda ayollar musobaqalarini bevosita stadiondan yoki ijtimoiy tarmoqlar orqali kuzatib borishi ma'lum bO'ldi. 15 nafar (53,5%) ishtirokchi ayollar futbol jamoalarida yaratilgan shart-sharoitlardan qoniqishi ma'lum bO'ldi. Ayollar oily liga baxslarini uy-safar tizimida O'tkazish 22 nafar (78,5%) va kubok baxslarining bir uchrashuvdan iborat g'olibni aniqlash tizimini 18 nafar (64,2%) ishtirokchiga maqul keldi. 26 nafar (92,8%) ishtirokchi Oliy ta'lim muassasalarida ayollar futbol jamoalari va mutaxassisliklari ochilishi shu soha rivojiga foydali bO'ladi deb hisoblashi ma'lum bO'ldi. SO'rovnomada eng asosiy ohirgi savol bO'yicha

